



UDK:81'342.4

Onorxon SATIMBOYEVA,

University of economics and pedagogy assistant o'qituvchisi, O'zDJTU mustaqil izlanuvchisi
E-mail: asatimboyeva@gmail.com

ADU dotsenti, PhD U.Rahmanov taqrizi asosida

PHONETIC FEATURES OF THE CONSONANT SYSTEM IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation

This article presents detailed considerations on the phonetic features of the consonant system of the English and Uzbek languages, and using the methods of comparison, contrast, and analysis and synthesis, the similarities and differences of the consonant systems of both languages were widely covered. Also, the types of consonants according to the place of formation, according to the method, according to the participation of voice and noise, and the number of sounds that are rich in controversy given in various literature were given.

Key words: Vowel, consonant, phonetic language units, consonantism, vocalism.

ФОНЕТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СИСТЕМЫ СОГЛАСНЫХ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье подробно рассматриваются фонетические особенности согласных систем английского и узбекского языков. С помощью методов сравнения, сопоставления, анализа и синтеза широко освещаются сходства и различия согласных систем обоих языков. Также приводятся типы согласных, приведенные в различных источниках по месту образования, способу, голосообразованию и шумовому участию, а также количество спорных звуков.

Ключевые слова: Гласный, согласный, фонетические единицы языка, консонантизм, вокализм.

INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA KONSONANTIZM SISTEMASINING FONETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tili va o'zbek tilining konsonantizm sistemasining fonetik xususiyatlari haqida batafsil fikrlar bayon etilgan bo'lib, qiyoslash, chog'ishtirish hamda analiz - sintez metodidan foydalangan holda har ikki til undosh tovushlar sistemasining o'xshashlik va farqli jihatlari keng yoritildi. Shuningdek konsonantlarning hosil bo'lish o'rniga ko'ra, usuliga ko'ra, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra turlari hamda turli adabiyotlarda berilgan bahs-munozaraga boy tovushlarning miqdori bo'yicha asosli fikrlar berib o'tildi.

Kalit so'zlar: Unli, undosh, fonetik til birliklari, konsonantizm, vokalizm.

Kirish. Til sistema sifatida turli belgilar tizimidan iborat bo'lib, tovushlar tilning eng kichik birligi bo'lishiga qaramay ular ma'no farqlash kabi dolzarb vazifa kasb etadi.

Ma'lumki, o'zbek tili turkiy tillar guruhiga kiradi. Ingliz tili esa german tillar oilasiga mansub, o'zbek tili aglutinativ analitik, ingliz tili esa ham analitik, ham sintetik tillar guruhiga kiradi. O'zbek tili turkiy tillarning katta guruhi ya'ni: mo'g'ul, koreys, venger, yapon, fin-ugar tillari bilan bir guruh hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, har bir tushuncha morfologik affiks qiymati bilan xarakterlanadi va har bir qo'shimcha affiks faqat bitta qiymatdan iborat [14].

O'zbek tili agglutinativ til hisoblangani sababli qo'shimchalar qo'shilishi natijasida nafaqat ma'noda o'zgarish balki so'zlarni qo'shib, ulab o'qib ketish natijasida ayrim fonologik hodisalar paydo bo'ladi. Masalan: kela olaman - kelolaman, ayta olaman - aytolaman. Ingliz tilida ham nutq barqarorligini ta'minlash hamda to'xtamlarni yo'qotish natijasida ko'p so'zlarni qo'shib, ulab o'qib ketish natijasida tovush tushishi, ortishi, moslashishi holatlari uchraydi, masalan: let me (menga ruxsat ber) -lemme, got you (seni tushundim) -gotcha, what are you (senchi) - whatcha. Ammo ushbu birikmalar ham informal ya'ni norasmiy muloqotda qo'llanilib ingliz adabiy til me'yorlariga zid hisoblanadi.

Undosh tovushlar - talaffuzida shovqin eshutiladigan nutq tovushlari. Biroq undoshlarning barchasida ham shovqin darajasi bir xil bo'lmaydi, shovqin darajasi har xilligi

kuzatiladi. Shunday undosh tovushlar borki, ularning ishlab chiqarilishida faqat shovqin eshutiladi, shunday undosh tovushlar borki, ularning ishlab chiqarilishida ovozi shovqindan ustun turadi, lekin asos shundaki, turli daraja va shakldagi shovqin undoshlar tallafuzida hamisha mavjud. Ammo undosh tovushlar davriy ovoz to'liqlarini bermaydi [4].

Undosh tovushlarning unilardan farqi albatta og'iz bo'shlig'idagi havo to'siqqa uchrab talaffuz qilinishi. Bu nafaqat ingliz va o'zbek, balki barcha tillarga xos umumiy xususiyat hisoblanadi. Odatda unilarning talaffuzi qo'shni undoshlarga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun biz ingliz tilining fonematik tizimining tavsifini undoshlar bilan boshlashimiz kerak [5].

Unlilar o'z navbatida faqat un yoki to'siqqa uchramasdan paydo bo'luvchi ohang xolos, ammo ularni turli shakllarda to'xtamga uchratuvchi tovushlar bu undoshlardir. Masalan birgina /u/ tovushi turli so'zga aylanishi uchun uning oldiga albatta /n, b, z, sh /undosh tovushlari kerak, shundagina u: un, bu, uz, shu kabi ma'no beruvchi so'zlarga aylanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Undoshlarning fonetik xususiyatlari ularning artikulyatsion-akustik tasnifida, perseptiv jihatdan o'ziga xosligi, shuningdek, undoshlarning so'zdagi distributsiyasida namoyon bo'ladi. Ingliz tilida undoshlarning fonetik tasnifi D. Jounz, Ulriti Gut, A.A. Abduazizov kabi tilshunoslar tomonidan talqin qilingan. D. Jounz ingliz tili undoshlarini, asosan, ovozning ishtirokiga,

hosil bo'lish o'rniga va hosil bo'lish usuliga ko'ra kabi uch me'zon asosida tasnif qilgan [5].

Ulriti Gut ham D. Jounz kabi ingliz tili undoshlarining fonetik tasnifini mazkur uch me'zon asosida keltiradi [11]. A.A. Abduazizov esa ingliz tili undoshlarini hosil bo'lish o'rniga ko'ra, hosil bo'lish usuliga ko'ra, ovozning ishtirokiga, yumshoq tanglayning holatiga ko'ra kabi me'zonlar asosida fonetik tasnif qilgan [1]. O'zbek tilida undosh tovushlarning fonetik tasnifi V. Reshetov [19], A.N. Kononov [16], Sh. Rahmatullayev [12], A. Maxmudov [17], M.M. Mirtojiyev [18], A.A. Abduazizov [1] kabi tilshunoslar tomonidan amalga oshirilgan. O'zbek tilida amalga oshirilgan undoshlar tasnifi "atama" nuqtai nazaridan o'zaro u yoki bu darajada farq qilsada, mazmun jihatdan o'zaro hamohang sanaladi [13].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada qiyoslash va chog'ishtirish, analiz - sintez metodlaridan foydalanildi. Ingliz va o'zbek tillari fonetik til birliklari qiyoslash metodidan foydalangan holda taqqoslandi va analiz - sintezlash metodi yordamida o'xshashlik va farqli tomonlari tahlil qilindi va quyidagi natijalarga erishildi.

Tahil va natijalar. Ingliz tilida undosh tovushlarning artikulyatsiyasi jismoniy harakatlar va muvofiqlashtirishni anglatadi. Lablar, til, tishlar va tovush paychalari kabi artikulyar organlar ma'lum undosh tovushlarni hosil qiladi. Undoshlar o'rni va bo'g'inlanish uslubiga ko'ra tasniflanadi, bu esa ularni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan aniq artikulyar harakatlarni aniqlaydi [2].

Shunga ko'ra Abduzohur Abduazizov Ingliz tili undosh tovushlarni tasniflashning umumiy fonetik tamoyillari quyidagilardan iborat deb hisoblagan.

- 1) Artikulyatsiya joyi;
- 2) Ishlab chiqarish usuli;
- 3) Ovozning mavjudligi yoki yo'qligi;
- 4) Yumshoq tanglayning holati [1].

O'zbek tili undoshlari ham:

- 1) Paydo bo'lish o'rni belgisiga (lab, lab-tish, til oldi, til o'rta, til orqa, uvulyar va faringal undoshlar oppozitsiyasi);
- 2) Paydo bo'lish usuli belgisiga (portlovchilik va sirg'aluvchilik oppozitsiyasi);
- 3) Jarangli - jarangsizlik belgisiga ko'ra tasniflanadi [10].

Ingliz undoshlari tizimi 24 undosh fonemadan iborat. Ular: /b/, /d/, /v/, /z/, /ʒ/, /dʒ/, /g/, /j/, /p/, /t/, /f/, /s/, /ʃ/, /tʃ/, /k/, /h/, /l/, /r/, /m/, /n/, /ŋ/, /θ/, /ð/, /w/, o'zbekcha undosh fonemalar tizimi A. Abduazizov, D. Nabiyeva, H. Zokirova tasnifiga ninoan 23 ta fonemadan iborat deb ta'kidlansa, ular: P, b, t, d, m, n, ng, k, g, q, f, v, z, s, sh, l, r, y, x, h, g', j va ch, N. Radjabov tasnifiga binoan esa 25 etib tasniflanadi.

O'zbek tili undoshlari esa N. Mahmudov, A. Sobirov, Sh. Sattorov, Sh. Toshmirzayeva, D. Mannopova ma'lumotlariga ko'ra 24 etib belgilanadi: b, d, f, g, h, j, dj, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng [9].

Ingliz tilidagi undosh tovushlarga quyidagilar kiradi: [b] bed- 'yotoq o'rni', [d] do- 'bajarmoq', [f] safe- 'xavfsiz', [g] good- 'yaxshi', [h] hat- 'qalpoq', [j] you- 'siz', [k] cat- 'mushuk', [l] allow- 'ruxsat bermoq', [m] me- 'menga', [n] no- 'yo'q', [p] put- 'qo'yimoq', [r] run- 'yugurmoq', [s] soon- 'tez', [t] talk- 'suhbat', [v] very- 'juda', [w] win- 'g'olib', [z] zoo- 'hayvonot bog'i', [ʃ] ship- 'kema', [ʒ] measure- 'o'lchamoq', [ŋ] sing- 'kuylamoq', [tʃ] cheap- 'arzon', [θ] thin- 'nozik', [ð] then- 'o'sha vaqtda', [dʒ] june- 'iyun' [6].

O'zbek tilida 29ta harf bo'lib ulardan 6 tasi unli, 23 ta undosh va 1ta tutuq belgisi mavjud. O'zbek tilida ham harf va tovushlar soni bir xil emasdir. O'zbek tilida undoshlar qatoriga [b] – bino, [d]-duradgor, [z]-Zilola, [g]- gul, [v]- varrak, [g']-g'olib, [j]-jo'ja, [y]-yoshlik, [m]- mehnat, [n]-non, [ng]tong, [l]-lola, [r]-rozg'or, [p]-paxta, [t]-temir, [s]-sahiy, [f]-favvora,

[k]-kamalak, [ch]-chashma, [sh]- shalola, [q]-qalb, [h]- hosil, [x]-Xorazm tovushlari kiradi [7].

Artikulyatsiya joyiga ko'ra ingliz tilida undoshlar labial va faringal (/h/) bo'lishi mumkin. Labial undoshlar bilabial (inglizcha /p/, /b/, /m/, /w/) kabi va labio-dental (f, v). Til undoshlari oldingi tilda (ingliz (/t/, /d/, /s/, /z/, /l/, /n/, /ʃ/, /ʒ/, /tʃ/, /dʒ/), til o'rtasi (/j/) va orqa tilda (/g/, /k/, /ŋ/) hosil bo'lishi mumkin. O'zbek tilida ham talaffuz joyiga qarab undoshlar til undoshlari, lab undoshlari, bo'g'iz undoshlariga bo'linadi. Til undoshlari tilning qaysi joyida talaffuz qilinishiga ko'ra yana 4 guruhga bo'linadi. Bular : 1. Til oldi (/d/, /t/, /s/, /z/; 2. Til orqa (/g/, /k/, /ŋ/; 3. Til o'rta (/y/); 4. Chuqur til orqa (/q/, /g', /x/). Lab undoshlari ham lab va tishning ishtirokiga ko'ra 2 ga: lab-lab (/b/, /m/, /p/), lab-tish (/v/, /f/) undoshlariga bo'linadi. Bo'g'iz undoshiga esa /h/ undoshi kiradi [9].

Artikulyatsiya usuli esa tovushlarni portlovchi (okklyuziv), sirg'aluvchi (konstruktiv) yoki affrikatlariga bo'lib farqlash imkonini beradi.

Ingliz tilidagi portlovchilar ya'ni okklyuzivlarga (/p, b, t, d, k, g/), sirg'aluvchi yoki konstruktivlarga (/f, v, s, z, θ, ð, ʃ, ʒ, h /) kabi undoshlar va affrikatlariga esa (/tʃ/, /dʒ/) kabi undoshlar kiradi. O'zbek tilida esa undoshlarning paydo bo'lish usuliga ko'ra oppozitsiyasi ikki belgiga asoslanadi: portlovchilik va sirg'aluvchilik. P, b, t, d, m, n, ng, k, g va q- portlovchilar; f, v, z, s, sh, l, r, y, x, h, g' - sirg'aluvchi; j va ch- portlovchi sirg'aluvchilardir [10].

Ovozning mavjud yoki mavjud emasligiga ko'ra yoxud jarangli va jarangsizlik xususiyatiga ko'ra ingliz va o'zbek tillarida undosh tovushlar 2 turga bo'linadi: jarangli va jarangsiz. Ingliz tilidagi jarangsiz tovushlar: [p], [t], [k], [ʃ], [f], [s], [h], [θ], [ʃ] hisoblansa, o'zbek tilida esa quyidagi jarangsiz tovushlar mavjud:[p], [t], [s], [f], [k], [x], [ch], [sh], [q], [h]. Demak ingliz tilida jarangsiz tovushlar soni 9 ta, o'zbek tilida jarangsiz undoshlar soni 10 ta. Ingliz tilida jarangli [b], [d], [g], [dʒ], [v], [ŋ], [z], [ð], [m], [n], [ʒ], [w], [l], [r], [j] tovushlari mavjud bo'lsa, o'zbek tilida jaranglilarga [b], [d], [z], [g], [v], [g'], [j], [m], [n], [ng], [y], [l], [r] tovushlari kiradi. Ingliz tilida jarangli undoshlar soni 15 ta, o'zbek tilida esa 13 ta [6]. Jarangli va jarangsizlarning oppozitsion holatlariga ko'ra ingliz tilida quyidagi 8ta undosh fonemalarning jarangli-jarangsiz jufti mavjud: /p-b/, /t-d/, /f-v/, /s-z/, /ʃ-ʒ/, /θ-ð /, /tʃ-dʒ/, /k-g/ [1]. O'zbek tilida esa quyidagilar: [p-b], [t-d], [s-z], [f-v], [k-g], [sh-j], [ch-dj], [x-g'] [7].

Tadqiqot natijasida erishilgan natijalar analiz qilinganda quyidagi mushohadalar paydo bo'ldi. Ingliz tilida undosh tovushlarni o'zlashtirish ma'lum tovushlarni hisobga olgan holda umumiy qoidalarga amal qiladi va ayrim tovushlar boshqalariga qaraganda ertaroq o'zlashtiriladi. Masalan, /p/, /b/, /t/ va /d/ kabi portlovchi tovushlar odatda tez va oson talaffuz qilinadi va tez o'rganib olinadi. Ayrim tovushlar ya'ni /f/, /v/, /s/ va /z/ kabi frikativ tovushlar esa sekinlik bilan o'zlashtirib olinishi mumkin. Affrikatlar (/tʃ/, /dʒ/) va yon tovushlar (/l/) kabi murakkab undosh tovushlar ko'proq vaqt va mahorat, amaliyot talab qiladi.

Ingliz va o'zbek tillarining fonetik o'xshashligiga e'tibor bersak, e'tiborimizni dastavval har ikki tilning alifbosi tortadi. Ingliz tili va o'zbek tilining harflar tizimi lotin alifbosiga asoslangan. Garchi harflar lotin alifbosida bo'lsa-da, ularning talaffuzi va tovushlar sonida nomutanosibliklar bor. Ya'ni o'zbek tilida 29 ta harf 30 ta tovush, ingliz tilida esa 26 ta harf va 44 ta tovush mavjud. O'zbek tilidan farqli o'laroq, ingliz tilidagi tovushlar soni harflar sonidan ancha ko'p ekaniga guvoh bo'lishimiz mumkin. Shu orada - nega ingliz tilida tovushlar soni harflar sonidan ko'proq - degan savol yuzaga keladi. Chunki ingliz alifbosidagi ayrim harflar, jumladan c, g, x, s lar bitta harf bo'lib yozilsa ham, nutqda qo'llanilayotganda yonida unli va undosh harflarning kelishiga qarab turlicha

talaffuz qilinish xususiyatiga ega. Misol uchun “cat”, “countable” va “content” soʻzlarida c harfi /k/ tarzida talaffuz qilinadi, ammo “celebrate”, “centre” soʻzlarida esa /s/ sifatida talaffuz qilinadi. Yoki “examine”, “example” soʻzlarida x harfi /gz/ shaklida, “except”, “export” soʻzlarida /ks/ deb aytiladi. Harflarning turlicha talaffuz qilinishi koʻp hollarda soʻzlovchini yanglishishiga va nutq jarayonida qoʻpol xatolar qilishiga olib keladi [8].

Ingliz tilida ham oʻzbek tilida ham artikulyatsiya deyarli oʻxshash qonun - qoidalarga boʻysunadi. Undosh tovushlarning artikulyatsiyasi boshqa artikulyatsiyalarni tushunish va boshqarishni ham oʻz ichiga oladi, masalan: ovoz chiqarish va nazalizatsiya kabi parametrlar. /b/ va /d/ kabi jarangli undoshlar tebranishni oʻz ichiga oladi, ovoz paychalarining tebranishi boʻlmasa, /p/ va /t/ kabi jarangsiz undoshlar talaffuz qilinadi. Burun undoshlari, masalan, /m/ va /n/, ogʻiz boʻshligʻida havo oqimini burun boʻshligʻi orqali oʻtkazishni oʻz ichiga oladi [2].

Ana endi tillarning fonologik xususiyatlariga ham toʻxtalib oʻtadigan boʻlsak, ikki fonema oʻxshash xususiyatlar tufayli baʼzan soʻz oxirida almashish holati uchraydi, lekin toʻlaligicha oʻzgartirib talaffuz qilinmaydi bu holat esa arxifonema deb yuritiladi. Abduzohur Abduazizov bu haqida shunday fikrlarni bildirib oʻtadi: Arxifonema- ikki fonemaning oʻxshashligi yoki neytralizatsiyalashuvi holatida oppozitsiyaning yoʻqolishi natijasida hosil boʻlgan fonologik birlik. Masalan, kitob (kitop) soʻzida b=p arxifonema hisoblanadi [1]. Ammo bu atama ingliz tilida neytrallashtirish xususiyatini ifodalay olmaydi, shuning uchun bunday fonematik almashinishni V.A. Vassilyev “alternofonema” atamasi bilan atashni taklif etgan. Abduzohur Abduazizovning fikriga koʻra alternofonema bu jarangli va jarangsiz fonemalar oraligʻidagi fonema, biroq u toʻla jarangsiz boʻla olmaydi. Masalan, ingliz tilida soʻz oxiridagi jarangli undoshlar ana shunday xususiyatga ega [1].

Arxifonema oʻzbek va rus tillarida uchraydigan holat boʻlsa, ingliz tilida esa alterfonema holatlari keng uchraydigan holat boʻlib, talaffuz jarayonida koʻp hollarda tovush almashishiga olib keladi. Masalan Oʻzbek tilida: qand-qant, ayb-ayp, biz-bis, Ingliz tilida esa: bed-bet, bid-bit [1]. Shuningdek undoshlarni oʻziga xos xususiyatlariga asosida akustik tomondan oʻrganish kerakligini Jakobson-Fant-Halle fanga olib kirgan boʻlib, unga koʻra nutqning akustik tomoni soʻzlovchi oʻziga tilda soʻzlayotganda qaysi qadamni tanlashi va qanday bosqichlarda olib borishi haqida soʻz boradi [3]. E.C. Fudge nutqning akustik xususiyatlariga soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasidagi muloqot bosqichi yaʼni soʻzlovchi soʻzlagan maʼlumotni tinglovchi qabul qilish jarayoni kirishini taklif etgan [1].

Ingliz tili undosh fonemalari 8 juftlik farqlovchi xususiyatlar bilan klassifikatsiyalanadi. Ingliz undosh fonemalarining allofonik xususiyatlariga toʻxtaladigan boʻlsak, allofon oʻzi bu nima degan savol tugʻilishi tabiiy hol. Allofon bu fonemaning asosiy varianti. Nutqning turli tovushlarida

namoyon boʻluvchi fonemalarining bir koʻrinishi. Masalan, undoshlar bilan birikib kelgan - [p, t, k] aspiratsiyalashmagan va unilardan oldin kelgan [ph, th, kh] aspiratsiyali tovushlar [p, t, k] fonemalarining allofonlaridir. Toʻldiruvchi distributsiyaga koʻra, ularning biri qoʻllanilgan holatda, ikkinchisi ishlatilmaydi deb taʼriflaydi Abduzohur Abduazizov oʻzining “English Phonetics” kitobida [1]. G.P. Torsuyev Ingliz fonemalarining ikki xil variantlashuvini taqdim etgan, ulardan birinchisi diafonik oʻzgaruvchanlik boʻlib, tovushlarning joylashuv oʻrniga emas tovushlarning oʻzgarish sifatiga taʼluqli xususiyati boʻlsa, ikkinchisi esa tovushning soʻzdagi joylashuv oʻrniga bogʻliq boʻlgan, soʻzdagi boshqa tovushlarning taʼsiri natijasida soʻz tovushlarining oʻziga xos xususiyatlarini oʻzgarish holati hisoblanadi. Diafonik oʻzgaruvchanlikka misol qilib strength, length kabi soʻzlarda /ŋ/ tovushini /n/ kabi talaffuz qilish holatlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Yoki con-, in-, syn- kabi old qoʻshimchalarni soʻzlardan oldin qoʻshganimizda va u urgʻu olganda /k/ dan oldingi /n/ /ŋ/ kabi talaffuz qilinadi. Ingliz tilidagi undosh fonemalarning koʻplab boshqa allofonlari turli tovush birikmalarida paydo boʻlishi mumkin. Ingliz tilida undoshlar soʻzlarning boshida hamda oxirgi qismlarida yuqoridagi misoldagiday holatlarga juda ham boy hisoblanadi. Ularning koʻpchiligi oʻzbek tilida uchramaydi [1]. Shuningdek ingliz tilida ham oʻzbek tilida ham shunday undosh tovushlar borki, ular turli shevalar vakillari tomonidan turlicha talaffuz qilinadi. Bu holatni biz har ikki til vakillari nutqida kuzatishimiz mumkin. Turli xil ingliz dialektlari maʼlum undosh tovushlarni ishlab chiqarishda oʻzgarishlarni koʻrsatishi mumkin, /r/ ning talaffuzi yoki turli xil allofonlardan foydalanish kabi holatlar ingliz dialektlarida uchrovchi holatdir. Bundan tashqari, jismoniy shaxslarning artikulyatsiyasiga taʼsir qiluvchi oʻziga xos artikulyar odatlar yoki ularning nutq shakllaridagi oʻzgarishlar boʻlishi mumkin [2].

Xulosa va takliflar. Ingliz va oʻzbek tillarining undoshlar tizimidagi oʻxshashlik va farqli jihatlari haqida soʻz borganda, har ikki tilda harflar va tovushlar soni bir-biriga mutanosib emas. Ingliz tilidagi undoshlar soni oʻzbek tilidagi undoshlar sonidan koʻra koʻproq, undoshlarni turlarini tasniflashga doir qarashlar ham har ikki tilda turlicha. Shuningdek paydo boʻlish usuliga koʻra farqlarga yuzlansak, ingliz tilida undoshlarning 3 turi farqlashda: portlovchi, sirgʻaluvchi, affrikatlar, oʻzbek tilida esa 2 turga boʻlingan: portlovchi va sirgʻaluvchilar. Ammo ovoz va shovqinning ishtirokiga koʻra esa har ikki tilda undoshlar jarangli va jarangsiz undoshlarga boʻlinadi. Hosil boʻlish oʻrniga koʻra tovushlar har ikki tilda oʻxshash xususiyatlarga ega. Yaʼni ular, lab, boʻgʻiz(faringal), til undoshlariga boʻlinadi. Shuningdek til undoshlarining oʻz ichki boʻlinishlariga toʻxtaladigan boʻlsak, til undoshlarining turlarida biroz farq seziladi. Masalan oʻzbek tilida til oldi, oʻrta, orqa, chuqur til orqa undoshlari kabi turlarga boʻlinsa, ingliz tilida esa yuqoridagilardan chuqur til orqa undoshi deb nomlangan turi mavjud emas.

ADABIYOTLAR

1. Abduazizov A.A. English Phonetics (A Theoretical Course). – T.: Musiqqa, 2007. – 256 p.
2. Arya Wiranda, Tiara Dwi Lestari, Yani Lubis ; The Role Of English Consonants In Language... Jurnal Multimedia Dehasen, Vol. 2 No. 3 Juli 2023 page: 501 – 508.P 505.
3. Fudge E.C. The Nature of Phonological Primes. //Phonological Theory. Evolution and current practice. N. V ., 1972, p. 32.
4. Arxiv.uz
5. Jones D. An Outline of English Phonetics. 9th ed. – Cambridge: Heffer, 1960. – 378 p.
6. Iriskulov M.T. English phonetics, Tashkent 2007, p. 221.
7. Ismailova B.Y. Oʻzbek auditoriyasida birinchi kurs studentlarini ingliz tilining konsonantizmiga oʻrgatishning lingvodidaktik asoslari, Toshkent, 2015.
8. Iskandarova D., Sherboyev N. Oʻzbek hamda ingliz tillaridagi fonetik oʻxshashliklar va farqlanishlar hamda ularning tarjimaga taʼsiri. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7481925>. B 9.

9. Mahmudov N, Sobirov A, Sattorov Sh, Toshmirzayeva Sh, D.Mannopova. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinf uchun darsligi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent 2020. 192 B, 27-b.
10. Nabiyeva D.A, H.R.Zokirova. O‘zbek tili fonetikasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. A n d i j o n - 2 0 1 6. B 105. 32-b.
11. Ulrite Gut. Introduction to English Phonetics and Phonology. – Germany. Peter lang: Internationaler Verlag der Wissenschaften, 2009. – 229 p.
12. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Universitet, 2006. – 476 b.
13. Radjabov N. Ingliz va o‘zbek tillarida undoshlarning fonetik va grafemik xususiyatlarida izomorfizm va allomorfizm. Fardu. Ilmiy xabarlar, Tilshunoslik -2023/№5. 236-b.
14. Sattorova N. Affixation in English and Uzbek: similarities and differences. “Science and Education” Scientific Journal. May 2021 / Volume 2 Issue 5. B 740.
15. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. 2-нашр. – Т.: Ўқитувчи, 2010. – 172 б.
16. Кононов А.Н. Грамматика современного литературного узбекского языка. – М.: Изд-во Академии наук, 1960. – 446 с.
17. Махмудов А. Фонетическая система узбекского литературного языка: Автореф. дисс. ... канд. фил. наук. – Т., 1980. – 59 с.
18. Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. – Т.: Фан, 2013. – 424 б.
19. Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Фонетика. – Т., 1953. – 28 б